

QORAKO'LCHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI

Shodiyev Bekzod To'lg'atovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
"Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda qorako'lchilik tarmog'ining rivojlanishi va uning qishloq xo'jaligidagi o'rni yoritilgan. Qorako'l mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish, naslchilik ishlarini takomillashtirish, yaylovlardan samarali foydalanish hamda mahsulotlarni qayta ishlash va eksport qilish masalalari tahlil qilingan. Tarmoqning barqaror rivojlanishi uchun SWOT tahlil asosida ichki va tashqi omillar ko'rib chiqilib, strategik rivojlanish yo'nalishlari belgilangan. Tahlil natijasida kuchli tomonlardan samarali foydalanish, zaif tomonlarni bartaraf etish va xatarlarni boshqarish bo'yicha aniq chora-tadbirlar taklif etilgan. Ushbu yondashuv qorako'lchilik tarmog'ini uzoq muddatli barqaror rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: qorako'lchilik, qishloq xo'jaligi, yaylovlardan foydalanish, ekologik moslashuvchanlik, eksport salohiyati, raqobatdoshlik, texnologiyalarni joriy etish, barqaror rivojlanish, qorako'l terilari, xalqaro hamkorlik, iqlim o'zgarishi

Аннотация: В статье рассматривается развитие отрасли каракулеводства в нашей стране и её роль в сельском хозяйстве. Анализируются вопросы увеличения объёмов производства каракулевых изделий, совершенствования племенной работы, эффективного использования пастбищ, переработки и экспорта продукции. Для обеспечения устойчивого развития отрасли проведён SWOT-анализ внутренних и внешних факторов, на основе которого определены стратегические направления развития. В результате анализа предложены конкретные меры по эффективному использованию сильных сторон, устранению слабостей и управлению рисками. Подчёркивается, что предложенный подход способствует долгосрочному устойчивому развитию каракулеводческой отрасли.

Ключевые слова: Ключевые слова: каракулеводство, сельское хозяйство, использование пастбищ, экологическая адаптивность, экспортный потенциал, конкурентоспособность, внедрение технологий, устойчивое развитие, каракулевые шкуры, международное сотрудничество, изменение климата.

Annotation: The article explores the development of the karakul breeding industry in our country and its role in agriculture. It analyzes issues related to increasing the production volume of karakul products, improving breeding practices, efficient use of pastures, and processing and exporting products. A SWOT analysis of internal and

external factors is conducted to ensure the sustainable development of the industry, and strategic development directions are identified. Based on the analysis, specific measures are proposed to leverage strengths, address weaknesses, and manage risks. It is emphasized that the proposed approach contributes to the long-term sustainable development of the karakul breeding sector.

Keywords: Keywords: karakul breeding, agriculture, pasture utilization, ecological adaptability, export potential, competitiveness, technology implementation, sustainable development, karakul pelts, international cooperation, climate change.

Kirish

Qorako'lichilik – chorvachilikning qadimiy va strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlaridan biri bo'lib, O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Qorako'l qo'ylarining noyob genetik xususiyatlari, ekologik sharoitlarga moslashuvchanligi va mahsulotlarining xalqaro bozorda yuqori baholanishi ushbu sohaga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda qorako'lichilikni rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va tarmoqni modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yaylovlardan samarali foydalanish, naslchilik ishlarini takomillashtirish, ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologiyalarini yangilash, shuningdek, mahsulotlarni eksportga yo'naltirish orqali tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu tadqiqotda qorako'lichilikning qishloq xo'jaligidagi o'rni, uning iqtisodiy salohiyati va rivojlanish istiqbollari atroflicha tahlil qilinadi. SWOT tahlili asosida tarmoqning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar va potensial tahdidlar baholanib, barqaror rivojlanish bo'yicha strategik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Respublikamizda yaylov chorvachiligi tarmog'ini modernizatsiyalash, uning o'ziga xos xususiyatlariga xos iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning nazariy - amaliy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Farmon va Qarorlarida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatlarida, soha olimlari va mutaxassislari bilan uchrashuvlarda bildirilgan fikrlari, ilmiy asarlari hamda ma'ruzalarida bayon qilingan.

Qorako'lichilik tarmog'ini o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda boshqarish, yaylov-cho'l hududlarida chorva mollarini saqlash, oziqlantirish, parvarishlash va boshqa zamonaviy talablar asosida iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha xorijlik yetuk olimlar M.A.Vinogradova, SH.R.Xerremov [1], O.Annageldiyev, O.Annamuxammedov [2], X.Ukibayev [3], T.J.Nurumbetov [4], N.Z.Shamsutdinov [5] va boshqalar qorako'lichilik tarmog'ida iqtisodiy islohotlarni

chuqurlashtirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Tahlil va natijalar

Mamlakatimizda qorako'lhilik tarmog'ini rivojlantirish va uning qishloq xo'jaligidagi o'rnini ta'minlash, qorako'l mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlarini oshirish va ularning turlarini ko'paytirish asosida keng ko'lamli tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish, naslchilik ishlarini takomillashtirish, yaylovlardan samarali foydalanish, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish va raqobatdoshligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni qayta ishlash va eksportga yo'naltirish masalalariga katta e'tibor qaratildi.

Qorako'lhilik tarmog'ining mavjud salohiyatini har tomonlama oshirish, tarmoqdagi xo'jaliklarning samarali faoliyatini ta'minlash, "qorako'lhilik mahsulotlarini ishlab chiqarish-tayyorlash-saralash-qayta ishlash-sotish tizimida"gi korxonalar o'rtasida iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash, pirovard natijada ushbu tarmoqni barqaror rivojlantirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirish maqsadida institusional islohotlarni jadallashtirish maqsadga muvofiq.

Qorako'lhilik tarmog'ining barqaror rivojlanishini SWOT tahlili tarmoqning ichki va tashqi omillarini tahlil qilish orqali strategik rivojlanish imkoniyatlarini belgilashga yordam beradi:

S (Strengths) – Kuchli tomonlar

- Ekologik moslashuvchanlik: Qorako'l qo'ylarining cho'l va yarim cho'l sharoitlariga moslashganligi.
- Mahsulotning noyobligi – Qorako'l terilari o'zining sifati va estetik xususiyatlari bilan xalqaro bozorda yuqori baholanadi.
- Tarixiy meros – Qorako'lhilik O'zbekiston va Markaziy Osiyo madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, turizm va eksport salohiyatiga ega.
- Kichik kapital talab qilinishi – Qorako'lhilik tarmog'i boshlang'ich investitsiyalar uchun katta xarajatlarni talab qilmaydi.
- Eksport salohiyati – Mahsulotlarning xalqaro bozorda yuqori talabga ega bo'lishi eksport daromadlarini oshirishi mumkin.

W (Weaknesses) – Zaif tomonlar

- Yaylovlarning degradatsiyasi – Yaylovlarning ortiqcha foydalanilishi va ekologik muvozanatning buzilishi.
- Texnologik orqada qolish – Qayta ishlash va ishlab chiqarish texnologiyalarining eskirganligi.
- Moliyaviy cheklovlar – Tarmoqni rivojlantirish uchun yetarli darajada investitsiyaning yetishmovchiligi.
- Malakali mutaxassislarning yetishmasligi – Sohada zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarning kamligi.

- Marketing va brendlashning zaifligi – Mahsulotlarni xalqaro bozorda samarali targ'ib qilishdagi cheklovlar.

O (Opportunities) – Imkoniyatlar

- Texnologiyalarni joriy qilish – Zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish orqali mahsulot sifatini va hajmini oshirish.

- Xalqaro hamkorlik – Chet el investitsiyalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish.

- Yangi bozorlar – Yevropa, Osiyo va Amerika davlatlarida qorako'l mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish orqali eksport hajmini oshirish.

- Barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish – Iqlimga moslashgan amaliyotlar va ekologik yondashuvlarni tatbiq etish.

- Turizm bilan integratsiya – Qorako'lchilikni tarixiy va madaniy brend sifatida rivojlantirish orqali agro va madaniy turizmni targ'ib qilish.

T (Threats) – Xatarlar

- Iqlim o'zgarishi – Qurg'oqchilik va cho'llanish jarayonlarining jadallashishi yaylovlar samaradorligini pasaytirishi mumkin.

- Raqobat – Xalqaro bozorda boshqa mamlakatlarning qorako'l mahsulotlari bilan raqobatning kuchayishi.

- Bozor narxining beqarorligi – Xalqaro bozorlarda qorako'l terilari va mahsulotlariga bo'lgan narxlarning keskin o'zgarishi.

Kuchli tomonlar va imkoniyatlardan foydalanib qorako'lchilikning noyoblighi va xalqaro talabni inobatga olib, texnologiyalarni joriy qilish va yangi bozorlarni zabt etish mumkin.

Zaif tomonlarni bartaraf etish asosan yaylovlarning ekologik boshqaruvini kuchaytirish, kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish maqsadga muvofiq.

Xatarlarni kamaytirish bo'yicha iqlim o'zgarishiga moslashgan amaliyotlarni tatbiq etish, kasalliklarni oldini olish va sug'urta tizimlarini rivojlantirish orqali xavflarni boshqarish va h.k.

Ushbu tavsiyalar asosida qorako'lchilik tarmog'ini uzoq muddatli rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

Xulosa va takliflar

O'zbekistonning qorako'lchilik tarmog'i qishloq xo'jaligi va milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu tarmoq mamlakatda ekologik sharoitga moslashgan, xalqaro bozorda talab yuqori bo'lgan mahsulotlarni yetishtirish va eksport qilish imkonini beradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, qorako'lchilikning barqaror rivojlanishi uchun quyidagi muhim omillar mavjud:

- Ekologik moslashuvchanlik va mahsulotlarning noyoblighi tarmoqning xalqaro bozordagi o'rnini mustahkamlaydi;

- Yaylovlarning degradatsiyasi, texnologik orqada qolish va malakali mutaxassislarning yetishmovchiligi;

- Iqlim o'zgarishi va xalqaro bozordagi beqarorlik kabi xatarlarni kamaytirish uchun ekologik choralar va risklarni boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

Qorako'lchilik tarmog'ining barqaror rivojlanishini ta'minlash va iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- Qorako'l mahsulotlarini qayta ishlash va ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish;

- Yaylovlar degradatsiyasini kamaytirish uchun ekologik muvozanatni saqlovchi choralarni ko'rish;

- Barqaror chorvachilik tamoyillarini ishlab chiqish va qishloq xo'jaligi tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish;

- Yangi bozorlarni o'zlashtirish va eksport hajmini oshirish uchun xalqaro savdo tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;

- Sohada yetuk mutaxassislarni tayyorlash uchun universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish;

- Qorako'lchilik sohasida innovatsion tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Виноградова М.А., Херремов Ш.Р., Розыев А.С.. Некоторые элементы технологии пустынного каракулеводства Туркменистана. http://base.dnsgb.com.ua/files/journal/201111_03_077-080.pdf;
2. Аннагельдыев О., Аннамухаммедов О. Первый Доклад о состоянии генетических ресурсов сельскохозяйственных животных в Туркменистане. Ашгабат-2004. Ассоциация животноводческих акционерных обществ Туркменистана «Туркменмаллары», НИИ Животноводства и ветеринарии, Национальный консультативный комитет по генетическим ресурсам животных (ФАО);
3. Укибаев Х. Почему каракулеводство стало «удавкой» для сельского хозяйства? <https://kursiv.kz/news/vlast-i-biznes/2018-08/pochemu-karakulevodstvo-stalo-udavkoy-dlya-selskogo-khozyaystva>;
4. Нурумбетов Т.Ж. Увеличение производства каракуля – основа развития легкой промышленности Республики Казахстан. Ж.: Технология текстильной промышленности. 2019№ 1 (379), 261-265 стр.;
5. Шамсутдинов Н.З. Естественные кормовые ресурсы аридных областей Средней Азии: перспективы использования их в фитомелиорации и селекции. Монографии «Кормовые растения сенокосов и пастбищ СССР», 303-310 стр.;
6. Shodiyev B., & Abdieva D. (2025). QORAKO'LCHILIK TARMOG'INI UZOQ MUDDATLI BARQAROR RIVOJLANTIRISH. Мировая наука, (1 (94)), 17-20.
7. Аликулов, К., Шодиев, Б. Т., & ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ, П. Р. А. В. О. В. Ы. Е. (2022). СОЦИАЛЬНЫЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИОРИТЕТЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАРАКУЛЕВОДСТВА КЛАСТЕРОВ. Экономика и социум, (10-1), 101.